




2021- yil yanvar-iyun




2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi


Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **78,9 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,7** birlikni tashkil qildi.
- 2021- yilning yanvar-iyunida 2444 mingga yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **126,4** foizni tashkil etadi.



2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 705 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 597 ta, sanoatda 553 ta, qurilishda 150 ta, yashash va ovqatlanishda 129 ta, axborot va aloqada 48 ta tashkil etilgan.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	15711	19314	3603
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1934	2444	510
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	79,3	78,9	-0,4
Sanoat	%	49,6	53,4	3,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%			
Investitsiya	%	84,0	87,6	3,6
Qurilish	%	96,2	96,1	0,1
Chakana savdo	%	85,3	86,1	0,8
Xizmatlar	%	60,2	59,6	0,6
Yuk tashish	%	95,7	93,5	2,2
Yuk aylanmasi	%	98,3	96,6	1,7
Yo'lovchi tashish	%	95,5	96,3	0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	98,1	0,8
Eksport	%	55,1	43,6	11,5
Import	%	90,3	82,0	-8,3



**2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

**YaHM
78,9 %**

**Savdo
86,1%**

**Sanoat
53,4%**

**Qurilish
96,1%**

**Investitsiya
87,6%**

**Export
43,6%**

**Xizmatlar
59,6%**


**Import
82,9%**

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	farqi (+;-)
Jizzax viloyati	1934	2444	513
Jizzax sh.	406	648	242
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	65	70	5
Baxmal	149	182	33
G'allaorol	186	245	59
Sharof Rashidov	243	387	144
Do'stlik	115	99	-16
Zomin	145	210	65
Zarbdor	125	119	-6
Zafarobod	90	58	-32
Mirzacho'l	75	89	14
Paxtalor	99	109	10
Forish	164	174	10
Yangiobod	72	54	-18



2021 - yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p

ulushi Jizzax shahri – 26,5 %, Sharof Rashidov tumani – 15,8 %, G'allaorol tumani - 10,0 %, Zomin tumani – 8,6 %, Baxmal tumani – 7,4 %, Forish tumani – 7,1 %, Do'stlik tumani – 4,9 % hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- y. yanvar- iyun	2021- y. yanvar- iyun	farq. (+;-)
Jami	1934	2444	510
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	512	597	85
Sanoat	332	553	221
Qurilish	170	150	-20
Savdo	645	705	60
Tashish va saqlash	36	31	-5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	83	129	46
Axborot va aloqa	21	48	27
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	26	8
Boshqa faoliyat turlari	117	205	88

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Jizzax sh.	406	648	242
Sharof Rashidov tumani	243	387	144
G'allaorol tumani	186	245	59
Zomin tumani	145	210	65
Forish tumani	164	174	10
Do'stlik tumani	115	99	-16
Zarbdor tumani	125	119	-6

2021- yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Jizzax shahrida – , 648 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan , 13,7 birlikni tashkil etdi.




Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 32,0 birlik Forish va Yangiobod tumanida, 15,4 birlik, Sharof Rashidov tumanida , 14,0 birlik, Arnasoy tumanida, 12,9 birlikni tashkil etgan. Baxmal tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 6,8 birlikka to'g'ri keldi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*



2021– yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)****Eng yuqori
ko'rsatkich**

- Jizzax shahri
- 32,0 birlik.

**O'rtacha
ko'rsatkich**

- Mirzacho'l tumani
- 12,6 birlik.

**Eng past
ko'rsatkich**

- Baxmal tumani
- 6,8 birlik.

**Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini
pasayish dinamikasi, yanvar-iyun
holatiga ko'ra, % da**

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 78,9 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-iyunida 79,3 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

78,9%**2019 г.****79,3%****2020 г.****78,9%****2021 г.**

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Jizzax viloyati	53,4	96,1	59,6	87,6
Jizzax sh.	41,8	90,2	35,6	84,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	35,3	100,0	55,8	51,0
Baxmal	100,0	100,0	81,0	94,3
G'allaorol	98,2	100,0	85,1	94,1
Sharof Rashidov	52,5	100,0	81,2	86,2
Do'stlik	11,7	100,0	74,1	96,4
Zomin	69,1	100,0	75,8	89,4
Zarbdor	39,3	100,0	72,5	91,4
Zafarabod	46,7	96,6	72,3	95,6
Mirzacho'l	100,0	98,1	65,6	98,7
Paxtakor	59,8	100,0	72,3	85,5
Forish	87,2	100,0	81,2	89,7
Yangiobod	100,0	100,0	62,9	47,

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Baxmal (100,0 %),
Mirzacho'l (100,0 %),
Yangiobod (100,0 %),
G'allaorol (98,2 %) va
Forish (87,2 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Arnasoy (100,0 %),
Baxmal (100,0 %),
G'allaorol (100,0 %),
Sh.Rashidov(100,0 %),
Do'stlik (100,0 %)
Zomin (100,0 %)
Zarbdor (100,0%)
Paxtakor (100,0 %)
Forish (100,0 %)
Yangiobod (100,0%)


Xizmatlarda-

Baxmal (81,0 %),
Zomin (75,8 %),
Do'stlik (81,9 %),
Sh.Rashidov (81,2 %)
G'allaorol (85,1 %) va
Forish (81,2 %) tumanlarida.

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 40,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 43,6 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal tumanida – 100,0 %, Paxtakor tumanida – 100,0 %, Zafarabod tumanida – 100,0 %, Mirzacho'l tumanida – 100,0 %, Yangiobod tumanida – 100 % ni, eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – 3,5 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 94,2 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 82,0 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal tumanida – 100,0 %, Gallaorol tumanida – 100,0 %, Mirzacho'l tumanida – 100,0 %, Yangiobod tumanida – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Arnasoy tumanida – 2,8 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 1866,6 milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar-iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (507,0 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (425,6 mlrd. soʻm), Forish (167,1 mlrd. soʻm), Mirzachoʻl (136,8 mlrd. soʻm) va Paxtakor (116,7 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Yangiobod tumanida (31,7 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past boʻlib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 53,4 foizni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal tumani (100,0%), Zafarobod (100,0%), Yangiobod (100,0%), G'allaorol (98,2%), Forish (87,2%) tumanlari tashkil etdi. Do'stlik tumanida (11,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 1209,3 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 101,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,9% foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (475,4 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (314,2 mlrd. so'm), Zomin (225,0 mlrd. so'm), G'allaorol (68,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1329,5 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 96,1% foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,4% foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (461,5 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (289,0 mlrd. so'm), Mirzacho'l (87,1 mlrd. so'm), Zomin (72,3 mlrd. so'm), G'allaorol (68,2 mlrd. so'm), Paxtakor (67,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1731,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 59,6% ini tashkil qildi 2020- yilning yanvar-iyun nisbatan o'sish sur'ati 114,9% kuzatildi.



2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (432,2 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (299,1 mlrd. so'm), G'allaorol (195,4 mlrd. so'm), Zomin (184,8 mlrd. so'm), Baxmal (138,0 mlrd. so'm), Forish (94,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 106,2 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,0 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 104,5 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 95,2 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 102,0 foizni tashkil etib, bu esa 2020 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,4 foizga pasayishiga olib keldi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 103,0 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 96,0 foizga pasayish kuzatildi.







Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalardan tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **714** ta respondentlar ishtirok etdi.



2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 17,4 % (124 ta), sanoatda – 16,8 % (120 ta), qurilishda – 7,8 % (56 ta) , savdoda – 33,4 % (238 ta), xizmatlar sohasida – 24,6 % (176 ta) ni tashkil etdi.



2021- yil II choragida kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, oʻrmon va
baliqchilik xoʻjaligi

Sanoat

Qurilish


Savdo

Xizmatlar



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning II choragida, oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 37,5 % ni, qurilishda 35,7 % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 34,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi sanoatda 65,8 % ni, xizmatlarda 63,8 % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 60,5 % ni tashkil etdi.



2021- yil II choragida kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da


Qishloq, oʻrmon va
baliqchilik xoʻjaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 43,2 % ni, qurilishda 39,3 % ni, savdoda 39,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda 67,5 % ni, xizmatlarda 61,4 % ni, savdoda 60,0 % ni tashkil etdi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Lochinov.

Tel.: (72) 221-51-02